

## BUXORO FOLKLORINI TO‘PLASH VA O‘RGANISH TARIXIDAN

Safarova Nigora Oxunjonovna,  
filologiya fanlari nomzodi, professor Buxoro davlat pedagogika instituti  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.046>

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro folklori haqida fikr yuritiladi. Buxoro folklori tarixi, uni to‘plash, ularni o‘rgangan va to‘plagan olimlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Buxoro folklorining yaratilishida dostonlarning, latifalarning, magiyaning, so‘z sehrining, Buxoroda xalq ijodiyoti xilma-xil tur va janrlarda namoyon bo‘lib, rivojlanib kelganligi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.*

*Kalit so‘zlar: folklor, Buxoro folklori, doston, to‘y marosimi, marosim, janr.*

## ИЗ ИСТОРИИ СОБИРАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ БУХАРСКОГО ФОЛЬКЛОРА

Сафарова Нигора Охунжоновна,  
кандидат филологических наук, профессор Бухарский государственный педагогический и институт

*Аннотация. В данной статье рассматривается фольклор Бухары. Представлены сведения об истории бухарского фольклора, собиравших его коллекции и изучавших учёных. В создании фольклора Бухары даются сведения о развитии былин, анекдотов, магии, магии слова, Бухарское народное творчество в различных видах и жанрах.*

*Ключевые слова: фольклор, бухарский фольклор, эпос, свадебный обряд, обряд, жанр.*

## FROM THE HISTORY OF COLLECTION AND STUDY OF BUKHARA FOLKLORE

Safarova Nigora Okhunjonovna,  
candidate philology of sciences, professor Bukhara State pedagogical institute

*Abstract. This article examines the folklore of Bukhara. Information is presented about the history of Bukhara folklore, its collections and the scientists who studied it. In the creation of Bukhara folklore, information is given about the development of epics, anecdotes, magic, the magic of words, Bukhara folk art in various types and genres.*

*Key words: folklore, Bukhara folklore, epic, wedding ceremony, ceremony, genre.*

Buxoro – qadim ul-ayyomdan turkiylar va tojiklar baqamti yashab, bunyod va obod etayotgan Vatan. Shu vajdan buxoroliklar uchun ham o‘zbekcha (turkiycha), ham tojikcha so‘zlash, kuylash va ijod qilish onadan tekkan tarixiy an‘anaga aylangan. Ammo buxoroliklar ikki tilda yaratgan ana shu boy folklornn to‘plash va o‘rganish uzoq zamonlar hech kimni qiziqtirmadi. Shunga qaramay, ayrim tarixiy-ilmiy manbalarda Buxoro folklorining u yoki bu namunasiga oid qayd va e‘tiroflar uchraydi. Chunonchi, mashhur muarrix Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far an-Narshaxiy «Buxoro tarixi»ning Arkning bino etilishiga oid bobida Siyovush ibn Kaykovusning otasidan arazlab, Afrosiyob huzuriga kelgani, unga kuyov bo‘lgani, so‘ngra o‘zidan yodgorlik sifatida hisor (ark) ni qurgani, Afrosiyobning dushmanlar qutqusiga uchrab, o‘z kuyovini qatl etgani aytilib, qimmatli bir ma‘lumot keltiriladi: «Afrosiyob uni o‘ldirdi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishda «Darvozai g‘uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga atab aytiladigan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarda mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytadilar. Qo‘shiqchilar uni «otashparastlar yig‘isi» deydilar». Shu ma‘lumot hisobga olinsa, qolaversa, Narshaxiyning: «Bu gaplar bo‘lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi», - deganiga suyanilsa, o‘zbek yig‘i-yo‘qlov qo‘shiqlari genezisi ancha qadimiyligi ayon bo‘ladi.

Buxorodagi dostonchilik qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatishda tanikli folklorshunos, akademik T.Mirzayevning tubandagi e‘tirofi diqqatga sazovor: «XIX asrning ulkan dostonchilaridan bo‘lgan Ernazar shoir Buxoro amiri Nasrullo huzurida «Alpomish» dostonini olti oy kuylagan emish. Bunda u qalmoqlar qo‘lida tutqunda yotgan qahramonning Boychibor tulpori yordamida qutqarilishini yangidan-yangi to‘sqinliklar qo‘shib, cho‘za bergan ekan. Oxiri sabr-toqati qolmagan amir o‘zining jangga minadigan otini egarlatib, shoir ro‘parasiga

bog'lagan emish. Buni fahmlagan hushyor shoir shu epizodni o'z dostoniga kiritib, go'yo amirning oti Alpomishni qutqarishga jo'nagan va uni qutqargan qilib ko'rsatgan, shu bilan birga, dostonning keyingi epizodlarini siqib, asar ijrosini tez tugatgan emish». Xuddi shu Ernazar shoirming teran badihalari tufayli amir Nasrulloning o'zi ham Shahrisabz va Kitob bekliklarida 1856 yilgi g'alayonni shafqatsizlik bilan bostirganligidan «Xon zulmi» va «Botirxon zulmi» tarixiy qo'shiqlarining qahramoniga aylanib qoldi.

XIX asrda yashagan zabardast zullisonayn shoir Abdulqodir Savdo «Muzika» asarida buxoroliklar amal qilgan marosim va udumlarga to'xtalarkan, ularning verbal qismiga daxldor ayrim aytim va qo'shiqlarni qayd etgan. Ana shu dalillarning o'ziyoq Buxoroda xalq ijodiyoti xilma-xil tur va janrlarda namoyon bo'lib, rivojlanib kelganligini, bunda so'z magiyasi asosidagi kinnalardan tortib asotiru afsonalar, rivoyatu latifalargacha, eng ommaviy kichik janrlar – maqolu topishmoqlargacha, eposning gultoji dostonu ertaklargacha mavjud bo'lganligini yaqqol tasdiqlaydi. Buning ilmiy qimmatini yana shundaki, folklor bag'rida janrlarning differentsiatsiyalashuvi uzoq muddatda kechganligini va bu jarayon ancha olis zamonlarda harakatda bo'lganligini ko'rsatadi.

Manbalar xalq tomosha san'atining qo'g'irchoqbozlik, dorbozlik va masxarabozlik singari ko'rinishlari Buxoroda eramizning V-VII asrlaridan beri rivojlanib kelayotganini tasdiqlaydi. Garchi tarix bu sohadagi san'atkorlar nomlarini hamisha ham o'z sahifalarida darj etib, saqlab qololmagan esa-da, ammo XIX va XX asrlarda ijod etgan G'ijduvonning G'ishti qishlog'ilik qo'g'irchoq o'yin ustalari Abdulkarim (1800-1870), uning o'g'li Siddiq Kalon (1858-1940), nevarasi Xolmurod bobo (1890-1970), Jo'ra qayroq (1796-1898), uning o'g'li Hamro (1818-1910), nevarasi Narzullo (1908-1962) va evarasi Nasullo Hamroyevlar, shuningdek, Zarif misgar, Sharif siyoh, Qori Hoji, Sharof chaqa, Arslon zochaboz, Sadridin eshon, Rajab meshkoblar, masxarabozlar – To'la masxara (1892-1906), o'g'li Gadoy masxara To'layev, Safar masxara Abdullayev, Ochil masxara Umirovlarning nomlari hamon xalq xotirasidir. Buxoro xalq qo'g'irchoqbozligi va masxarabozligi xususiyatlari va tarixini ilmiy asosda o'rganib, N. Nurmonov, Y. Perepeltsina va M. Qodirov salmoqli tadqiqotlar yaratdilar. Buxoroda xalq musiqasi, ayniqsa, «Shashmaqom» va uning asosida o'ynalgan «Bozi kalon», shuningdek, «Buxorcha», «Mavrigi» qo'shiq-raqs turkumlari, «Otash o'yin», «Ajdaho o'yin», «Qayroq o'yin», «Qoshiq o'yin», «Pichoq o'yin», «Qilich o'yin», «Tayoq o'yin», «Ot o'yin», «Xo'roz jangi», «Echki o'yin» singari qadimiy raqslar keng tarqalgan. M.Qodirovning Buxorodagi rus elchisi V. V. Krestovskiy ma'lumotlariga suyanib ko'rsatishicha, «Bozi kalon» kompozitsiyasi puxta ishlangan, keng davraga mo'ljallangan, o'yinlari viqorli, ayni choqda, mayin va nafis bo'lgan. Unda qoida bo'yicha raqqoslar toq sonda: uch, besh yoki yetti nafar bo'lib, tomoshabinlar oldiga qator tizilganlar. Ustaroq raqqos yoki baytchi har vaqt o'rtada bo'lgan. Ustlarida har yer-har yerida kashta tikilgan zardo'zi do'ppi, uning tagidan jingala kokillar osilib turgan... O'yin hamma vaqt raqqoslar go'zalligi va fazilatlarini madh etuvchi yallalardan boshlangan. Odatda oyoqyalangdoiralalar yoki cholg'u ansambli jo'riligida ashula bilan o'ynalgan. Oldin raqqoslar tizilib, boshlarini biroz orqaga va yonga tashlab tizzalarini sal-pal bukib, goh o'ng, goh chap qo'lini yengil oldinga uzatib, sekin-asta davrani aylanganlar. Cho'kka tushib o'tirib olgan tomoshabinlar qarsak chalib, chayqalib turgan. Raqqoslar bir necha marta yo'nalishini o'zgartirib, davra bo'ylab goh o'ngdan, goh chapdan orqaga qaytganlar, yonma-yon terilib, goh tomoshabin tomonga, goh ketiga yo'rg'alaganlar. So'ng takt usul tezlashib, o'yinchilarning harakatlari dadilroq, shiddatliroq, keskinroq bo'la borgan va doiralarning tezkor rezlari ostida charxga, ba'zan sakrab o'ynashga aylangan.

Buxoro folklorini regional to'plash va o'rganish harakati, asosan, XX asrning 20-yillarida boshlandi. Boshda Buxoro muzika folklori va «Shashmaqom»ni yozib olish va tadqiq qilish jiddiy tus oldi[2]. Bu ishning boshida ulkan tarixchi va davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev va qomusiy olim Abdurauf Fitrat turdilar. Bu haqda uning shaxsiy kotibi, sharq mumtoz adabiyotining bilimdoni G'ulomjon Izomov (domla Izomiy) shunday hikoya qilgan edilar: «Xalqimizning bebaho madaniy boyligi bo'lgan «Shashmaqom»ni keyingi avlodga yozib qoldirish maqsadida Fayzulla Xo'jayev o'sha davrda O'rta Osiyo xalqlari musiqa merosini o'rganish uchun Turkiston o'lkasiga kelgan mashhur musiqa etnografi V.A.Uspenskiyni Buxoroga taklif etib, keksa maqomdonlar Bobo Jalol va Bobo G'iyoslardan «Shashmaqom»ning to'la variantini notaga olishni kelishib oladi. V.A.Uspenskiy bu mashaqqatli vazifani 1923 yilda boshlab, 1924 yilda A.Fitrat va N.N.Mironov tahriri bilan Moskvada nashr ettirdi. F.Xo'jayev Uspenskiyning xizmat haqini oltin bilan to'laydi».

Buxorodagi og'zaki ijod namunalaridan ijodiy maqsadlarda foydalanish asnosida ularni o'rganishda tashabbuskor bo'lganlardan biri – ustoz Ayniy bo'lganligi shubhasiz. U asrimizning boshlaridayoq bunday kuzatishlarini boshlab yuborgan, keyinchalik yaratgan «Oдина», «Doxunda», «Qullar», «Sudxo'ring o'limi», «Esdaliklar» singari o'lmas obidalarida xalq maqollari, qo'shiqlari, rivoyatlarini yedirib yuborgan, shu asosda asarlari badiiy jozibasini, xalqchilligini kuchaytirishga erishgan edi. Bu jihatdan loaqal «Shoh qizi» lapari va «Jilvon arig'i» haqidagi xalq qo'shiqlarini eslash kifoya. Ustod Ayniy shular bilangina cheklangan emas, u Buxoro

bolalarining «Ko‘z boylog‘ich», «Xushtut o‘yini», «Ketma-ket o‘yin», «Archa necha man», «Aylana-aylan», «Gachao‘yin» singari 14 o‘yini maxsus yozib oldi va 1931 yilda Rahim Hoshim (Mim) bilan hamkorlikda boshlang‘ich maktablarning 2-sinfida o‘qishga mo‘ljallab yaratgan “Rohi nav” («Yangi yo‘l») darsligiga kiritdi. 20-yillarda Buxoro xalq qo‘shiqlari, maqollari, topishmoqlari va ertaklaridan ayrim namunalarni yozib olishda Elbek alohida tashabbus ko‘rsatdi. U 1922-23 yillar davomida Buxoroda bo‘lib, o‘zi yozib olgan folklor namunalarni «Buxoro axbori» gazetasi va «Maorif va madaniyat» jurnalining 1923 yil noyabrida chiqqan 1-sonida e‘lon qildi, keyinchalik ulardan ayrim namunalarni G‘ulom Zafariy bilan hamkorlikda 1925 va 1935 yillar orasida uch marta nashr ettirgan «Ashulalar» to‘plamiga ham kiritdi .

Buxoro folklorini regional to‘plash va o‘rganish boshda shu xilda stixiyali tarzda boshlandi. Jumladan, xalq baxshisi Saidmurod Panoh o‘g‘lining fanda kashf etilishi ham tasodifiy holda sodir bo‘ldi. 30-yillarning o‘rtalarida shoir Nasrullo Oxundiy saylov munosabati bilan Qiziltepaga kelganida, xalq baxshisi haqida eshitib qolgach, uni Toshkentdagi folklorshunoslarga ma‘lum qiladi. Shundan so‘ng jirovni Toshkentga chaqirish tadorigi ko‘rilgan, natijada 1937-1938 yillarda shoir Amir Umariy undan «Kunlarim» termasi va «Mullalar to‘g‘risida», «Amirning o‘lponchilariga qarshi» qo‘shiqlarini yozib olib, keyingi ikki qo‘shiqni «Guliston» jurnalida e‘lon qiladi . M.Toshpo‘latova esa jirovdan «Qamayda», «Gulzorim bor» qo‘shiqlarini, M.Zarifov «Odilxon» dostonining bosh qismini yozib olishga muvaffaq bo‘ldilar. Biroq shoirning «Alpomish», «Go‘ro‘g‘lining Qrimga borishi» dostonlarini hamqishlog‘i, 6-sinf o‘quvchisi Shamsi Murodov yozib oldi. Keyinchalik ana shu manbalarni sinchiklab o‘rganib, Kenegas qishlog‘ilik Saidmurod Panoh o‘g‘li (Murod jirov, 1875-1945) ning ilmiy-ijodiy biografiyasini tiklashda T.Mirzayev salmoqli ish qildi. U jirovning barcha dostonlari, qo‘shiq va termalarini sinchiklab o‘rgandi va «Odilxon» nomi ostida 1972 yilda chop ettirdi va bu ishi bilan Buxoro dostonchilik maktabi an‘analari asrimizning 40-yillarida ham davom etganligini isbotlab berdi[3].

Buxoro folklori turli xalqlarning o‘zaro yondosh yashashlari tufayli yuzaga kelgan sintezlashgan san‘at hodisasi. Shu bois uning talay namunalari shiru shakarlik xususiyati seziladi. Ayni aamonda biz Buxoro vohasida keng tarqalgan bolalar allalari, aytim-olqishlari, erkalamalari, ovutmachochlari, qiziqmachochlari, tez aytishlari, chandishlari, guldur-guplari, tegishmachochlari, arazlamalari, yarashtirgichlari, masxaralamalari, shuningdek, o‘yinlar va ularning debochalari sanaluvchi chorlamalari, cheklashmachochlari, sanamalari, tarqalmachochlar, bolalarning tabiatga munosabatidan tug‘ilgan yalinchoqlaru hukmlagichlargacha to‘plab, o‘rgana turib, o‘zbek bolalar folklorining yaxlit bir tizim sifatida shakllangan mustaqil og‘zaki adabiy hodisa ekanligini aniqladik, shu kuzatishlarimiz natijasini «Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari» va «O‘zbek bolalar poetik folklori» (1985) monografiyalarimizda umumlashtirdik. Shu sohada yiqqan materiallar asosida esa o‘zbek bolalar folklorining ilk yirik nashrlarini amalga oshirdik. «Boychechak», «Chittigul» va «Alla-yo alla» ana shunday majmualar bo‘lib, o‘zbek bolalar folklorshunosligi tarixidagi dastlabki nashrlar sifatida qimmatli ilmiy va amaliy ahamiyatga ega . Ayni zamonda salkam qirq yil davomida yig‘ayotganimiz Buxoro folklori namunalari asosida olti jildga mo‘ljallangan majmua tartib berayotirmizki, hozirgacha shularning dastlabki qo‘shiqlar (ikki jild), ertaklar va bolalar folkloriga oid to‘rt jild nashrga taxt etib qo‘yilgan. Bastakor O.Atoev, musiqashunos F.To‘rayevlar bilan hamkorlikda faqatgina buxorolik ijrochilarga xos «Buxorocha» va «Mavrigi» ashula va raqslardan iborat xalq kuylarini ilk bor notasi bilan yozib olib, «Buxorocha» va «Mavrigi» taronalari» majmuini nashrga tayyorlayapmiz[3]. Shularga qaramay, Buxoro xalq qo‘shiqlarini shu zaminda yashayotgan turli xalqlar ijodiy hamkorligi samarasi sifatida yaxlit tizimda o‘rganish, tarixiy-etnografik tabiati va badiiyatini ochish, janriy tarkibini aniqlash, matn va musiqiy ohangdorligini uyg‘unlikda tekshirish, shu asosda ularning o‘zbek va tojik, qolaversa, jahon xalqlari folklori taraqqiyotidagi mavqei belgilash dolzarb muammolardan bo‘lib kelayotir.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. // I kitob. – T., 1956. – 844 b.

Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori, T.: O‘qituvchi, 1975 46-49-betlar.

Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005